ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 406 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CODEPЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Ганурова

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik mohiyati ... 97
Mavlyanova Umida Sadikjanovna

Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari 101
Choriyeva Durdona Anvarovna, Malikova Umida Nurliboy qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi

Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar milliy qadriyatlariga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 106
Turg'unov Baxromjon Raximjonovich

Tarbiyachi-pedagoglarda deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik yondashuvlari 112
Davlatova Dildora Nuriddinovna

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari 115
A. B. Mamatova

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati monitoringi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 123
Mongiyev Abdulxokim Ibragimovich

Transformational School Leadership and Teacher Performance: A Narrative Literature Review 127
Nilufar Buriyeva Anvar kizi, Axatov Aminjon Tohir ugli,
Sodiqova Marziyaxon Botirjon kizi, Lutfullayeva Moxistara Xayrullo kizi

Pedagogical Model for Improving the Methodological Competence of Future History Teachers Based on Digital Historical Sources 133
Otegenov Berdibay Menglibaevich

Tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va ertakterapiya imkoniyatlari 136
Qosimova Muattarxon Shokirjon qizi

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik mahorat, refleksiv va innovatsion yondashuvning integratsiyasi 140
Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna

Xorijiy tajribalar asosida maktab ta'lim mazmunini takomillashtirish 146
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Teshayeva Toxira Inomjonovna

Pedagogik muhandislikning metodologik asoslari, kategoriyaviy apparati va yondosh ilmiy-pedagogik yo'nalishlar bilan o'zaro aloqadorligi 151
Nasrullayeva Fatima Azatovna

Рефлексивная подготовка будущих воспитателей к личностно ориентированному взаимодействию с дошкольниками 160
Бозорова Зухра Жураевна

Bo'lajak tarbiyachilarning tasviriy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni 165
Xazratkulova Gulyora Tojiboyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili ta'limini loyihalash kompetensiyasini metakognitiv yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi 169
Raupova Navbahor Bahriddinovna

Kursant va talabalarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish va ekstremal sharoitlarda harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari 174
Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich

Talabalarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyati 179
Sharipova Guzal Sodiqovna

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining matematik tasavvurlarini mental yondashuv asosida takomillashtirish: nazariy-metodik sharh 185
Parpiyeva Mohinur Baxtiyor qizi

STEAM yondashuvi asosida fizika laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi 189
Artikov Abdukaxor

"Korpus detektori" mashqlar tizimi: tuzilishi, bosqichlari va qo'llash metodikasi 196
Bahronov Nodirbek Aliyevich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongli o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan yondashuv (EGRA-U diagnostikasi asosida) 199
Ne'matova Diyora Baxodir qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Ona tili darslarida hamkorlik texnologiyasidan foydalanishning mavjud holati va metodik muammolari 205
Usmonova Yulduz Faxriddin qizi

Grammatik tarjima metodida ona tilidan foydalanishning didaktik xususiyatlari 210
Erkinova Madina Komil qizi

Talabalarda ta'limiy kommunikativlikni rivojlantirishning pedagogik shart sharoitlari 214
Babayeva Maxfuza Abduvaitovna, Ismoilov Bobur Toxirovich

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi refleksiv kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish darajalari 218
Bomurodova Gulhayo Jumayevna

Masalalarni tenglama tuzish yordamida yechimini qurishga o'rgatish metodikasi 223
Ismoilov Bobur Toxirovich, Babayeva Maxfuza Abduvaitovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash mazmunida argumentatsion nutq: darsliklar, o'quv reja va oliy ta'lim adabiyotining kontent-tahlili 229
Mamatova Marg'uba Ummatqul qizi

Основы паллиативной помощи педагогическая поддержка детей, получающих паллиативную помощь 233
Жузбаев Нурлан Урал угли, Хакимова Гульшода Абдусаламовна

"Pedagogikaning pragmatik aspektlari" modulini kreativ yondashuv asosida o'qitish modeli va ingliz tilidagi o'quv materiallarini tanlash mezonlari 237
Meliqo'ziyeva Zarnigorxon Ikromjon qizi

Gospital sharoitida turli yosh guruhlaridagi bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari 242
S. M. Umarova

Harbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyat davomida hissiy kuyish (emotsional burnout) sindromining ijtimoiy-psixologik psixoprofilaktikasi 246
Tursunov Kamariddin G'ulomovich

Использование подходов геймификации при обучении иностранному языку детей 5-6 лет 250
Курбанова Назира Низомиддиновна

Ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilarda tiflotexnik vositalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish metodlari 257
Astanova Zumradxon Toxirovna

O'quvchilar xulq-atvoridagi og'ishish ilmiy tadqiqotlar talqini asosida 262
Azimjonova Rushana Rashid qizi

Образ сильной узбекской женщины в творчестве Зульфии 267
Аскарова Наргиза Абдивалиевна, Усманова Самира Зафаровна

Inklyuziv guruhlarda differensiallashtirilgan yozma topshiriqlar tizimini loyihalash tamoyillari 271
D. X. Saydazimova

Maktabgacha ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish va tarbiyachining kreativ kompetentligini oshirish metodlari 275
Odilova Sitora Ergash qizi

Milliy qadriyatlarga asoslangan matnlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va tanqidiy fikrlashini notiqlik faoliyati orqali rivojlantirish 281
Ziyodullayeva Zuhro Faxriddin qizi

Raqamli transformatsiya sharoitida o'qituvchining refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish modeli 286
Magzumova Lola Turakulovna

Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limda seldan foydalanishga tayyorlash muammosining ijtimoiy va metodik qatlamlari 292
Sayfullayeva Ismigul Qodir qizi

Ichki ishlar xodimlarida koping-strategiyani shakllantirish kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli ta'minlovchi omil sifatida 296
Aliboyev Himaydin Fayzulla o'g'li

Psixologik holatni baholash asosida differensial mashqlar orqali badmintonchilarning koordinatsion va texnik tayyorgarligini rivojlantirish 299
Beknazarov Raxat Axmet og'li

Oliy ta'limda biotexnologiya fanini o'qitishning zamonaviy pedagogik asoslari 302
Jumabayeva Aygul Kuatovna, Ametov Yakub Idrisovich

Dialogik nutq o'qitish metodikasining shakllanishi 307
Xamidullayeva Fotima Adxam qizi

Алгоритм развития управленческой компетентности будущих учителей русского языка и литературы на основе обратной связи и коррекции педагогических решений 313
Акмалова Дилдора Тохировна

Эффективные методы развития икт-компетентности педагогов в цифровой образовательной среде ... 319
Каримова Наргизахон Яхёевна

Qadimgi Misr va Gretsiya olimlarining muhandislik grafikasi fani yuzasidan izlanishlari 322
Ergasheva Shohista Anvar qizi

Предметно-языковые задания на уроках русского языка в начальной школе Узбекистана 324
Худжамова Хуснора Диёр кизи

Musiqa ta'limi dars mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari 329
Tuxtasinov Abror Rustamovich

Developing Creative Competence During Pedagogical Practice: an Integrated Model for Future English Language Teachers 332
Mukhtorov Mukhiddin Mansur o'g'li

AI-generatsiyalanuvchi adaptiv testlar orqali talabalarning bilim darajasini diagnostika qilish metodikasini takomillashtirish 338
Abdullayeva Nazokat Isayevna, Habibullayeva Jamilaxon Ne'mat qizi

Aniq fanlarni o'qitishda o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini tashkil etishning didaktik modeli va vositalari 343
Saidov Utkirjon Mallayevich, Abdurashidova Munira Abdumumin qizi

Muammoli vaziyatlar va keys-stadi asosida bo'lajak pedagoglarning tanqidiy-analitik tafakkurini rivojlantirish metodikasi 348
Kubayeva Maxbuba Raxmatulayevna

Badiiy asarlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy tafakkuri va ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi 352
Uvaydiloyeva Zarrina Olimovna, Abdullayeva Nazokat Isayevna

Sport psixologining kasbiy kompetentligini tadqiq etishning zamonaviy yo'nalishlari va metodologik muammolari 357
Rasulov Zokir Pardayevich

Научно-теоретические основы совершенствования самостоятельного обучения студентов педагогических вузов в процессе изучения микробиологии 363
Нарзуллаева Ирода Уктам кизи, Каландарова Мадина Андрей кизи

Tarixiy manbalar asosida talabalarda tarixiy tafakkur va tarixiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari 368
Ne'matullayev Shohjahon G'aybulla o'g'li

Sun'iy intellekt texnologiyalarining oliy ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari 378
Mirzaraximova Zilola Mirzohid qizi

Sun'iy intellekt texnologiyalarining oliy ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari 378
Mirzaraximova Zilola Mirzohid qizi

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari 382
Hazratqulova Aziza Rustam qizi, Ashurov Abror Uralovich

Sog'lom turmush tarzidagi qizlarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda harakatli o'yinlardan foydalanish mexanizmlari 389
Tashpulatova Dono Ergashevna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Xorij va milliy pedagogika tadqiqotlarida metakognitiv kompetensiya tushunchasi tahlili 395
Feruza Xasanova, Assistent o'qituvchi

Talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan foydalanishning nazariy-metodologik aspektlari 402
Ibotova Dildora Shomirovna

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Mirzaraximova Zilola Mirzohid qizi
Namangan davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
E-mail: zilolamirzaraximova1@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining oliy ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari tizimli ravishda tadqiq etiladi. Muallif sun'iy intellektni o'qituvchini almashtiruvchi vosita sifatida emas, balki ta'lim jarayonining didaktik funksiyalarini kuchaytiruvchi va kengaytiruvchi texnologik muhit sifatida talqin qiladi. Tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalarining intellektual tyutorlik, moslashuvchan qayta aloqa, o'quv materiallarini yaratish, baholash va o'quv analitikasi kabi asosiy didaktik funksiyalari tasniflanadi. Ishda ushbu funksiyalarni o'quv jarayoniga integratsiyalashning uch darajali modeli ishlab chiqiladi, sun'iy intellektdan didaktik foydalanish tamoyillari asoslab beriladi hamda u bilan bog'liq xavf-xatarlar – akademik halollik muammosi, aqliy mehnatning tashqi vositalarga ko'chirilishi va axborot ishonchliligi masalalari tahlil qilinadi. Xulosada sun'iy intellektning didaktik samaradorligi texnologiyaning o'zi bilan emas, balki undan pedagogik jihatdan asoslangan holda foydalanish bilan belgilanishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, oliy ta'lim, didaktik imkoniyatlar, intellektual tyutorlik tizimi, moslashuvchan qayta aloqa, o'quv analitikasi, generativ sun'iy intellekt, akademik halollik, kognitiv yuklama, pedagogik dizayn.

Abstract: The article systematically examines the didactic possibilities of artificial intelligence technologies in the higher education system. The author interprets artificial intelligence not as a means of replacing the teacher, but as a technological environment that strengthens and extends the didactic functions of the educational process. The main didactic functions of artificial intelligence technologies – intelligent tutoring, adaptive feedback, the creation of learning materials, assessment, and learning analytics – are classified. A three-level model for integrating these functions into the learning process is developed, the principles of the didactic use of artificial intelligence are substantiated, and the associated risks – academic integrity issues, the transfer of cognitive effort to external tools, and information reliability – are analysed. In conclusion, it is substantiated that the didactic effectiveness of artificial intelligence is determined not by the technology itself, but by the pedagogically grounded nature of its application.

Key words: artificial intelligence, higher education, didactic possibilities, intelligent tutoring system, adaptive feedback, learning analytics, generative artificial intelligence, academic integrity, cognitive load, pedagogical design.

Аннотация: В статье системно исследуются дидактические возможности технологий искусственного интеллекта в системе высшего образования. Автор интерпретирует искусственный интеллект не как средство замены преподавателя, а как технологическую среду, усиливающую и расширяющую дидактические функции образовательного процесса. Классифицируются основные дидактические функции технологий искусственного интеллекта: интеллектуальное тьюторство, адаптивная обратная связь, создание учебных материалов, оценивание и учебная аналитика. Разрабатывается трёхуровневая модель интеграции данных функций в учебный процесс, обосновываются принципы дидактического использования искусственного интеллекта, анализируются связанные с ним риски – проблема академической честности, перенос умственной деятельности на внешние инструменты и достоверность информации. В заключении обосновывается, что дидактическая эффективность искусственного интеллекта определяется не самой технологией, а педагогически обоснованным характером её применения.

Ключевые слова: искусственный интеллект, высшее образование, дидактические возможности, интеллектуальная обучающая система, адаптивная обратная связь, учебная аналитика, генеративный искусственный интеллект, академическая честность, когнитивная нагрузка, педагогический дизайн.

KIRISH

XXI asrning ikkinchi choragida ta'lim tizimini raqamli transformatsiya qilish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalari eng katta o'zgartiruvchi kuchga ega omillardan biriga aylandi. Ayniqsa, so'nggi yillarda generativ sun'iy intellekt vositalarining ommaviy foydalanishga kirib kelishi oliy ta'lim amaliyotini misli ko'rilmagan tezlikda o'zgartirmoqda: talabalar matn yozish, ma'lumot izlash, masalalar yechish va hatto ilmiy tadqiqotlarni rejalash-

tirishda ham ushbu vositalardan kundalik ravishda foydalanmoqda. Natijada oliy ta'lim muassasalari oldida sun'iy intellektni ta'lim jarayonida qo'llash kerakmi, degan savol emas, balki undan qanday qilib pedagogik jihatdan asoslangan tarzda foydalanish kerak, degan savol turibdi. Sun'iy intellekt deganda odatda inson intellektini talab qiladigan vazifalarni – tabiiy tilni tushunish, qonuniyatlarni aniqlash, ma'lumotlar asosida o'rganish va qaror qabul qilishni – bajarishga qodir kompyuter tizimlari tushuniladi.

Ta'lim sohasida bunday tizimlarning bir necha sinfi ajratiladi:

- talabaning bilim holatini modellashtirib, unga individual ko'mak ko'rsatuvchi intellektual tyutorlik tizimlari;
- o'quv materialini talabaning yutuqlariga moslashtiruvchi adaptiv platformalar;
- yozma javoblarni tahlil qilib, baholovchi tizimlar;
- matn, savol va tushuntirishlar yaratuvchi generativ modellar; shuningdek, o'quv jarayoni haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiluvchi o'quv analitikasi vositalari.

Har bir sinf o'ziga xos didaktik imkoniyatlar va cheklovlarga ega.

Didaktik imkoniyat tushunchasi mazkur tadqiqotning markaziy kategoriyasi hisoblanadi. Didaktik imkoniyat deganda muayyan vositaning ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalarni – axborot berish, bilish faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish, nazorat qilish va tuzatish funksiyalarini – bajarish salohiyati tushuniladi.

Muhim jihati shundaki, texnik imkoniyat va didaktik imkoniyat bir xil narsa emas: texnologiyaning muayyan amalni bajarishga qodirligi uning ta'lim natijalarini yaxshilashini anglatmaydi. Didaktik imkoniyat faqat muayyan pedagogik shartlar mavjud bo'lgandagina amalga oshadi. Shu sababli uni texnologiyaning texnik xususiyatlaridan emas, balki ta'lim maqsadlari va jarayonining qonuniyatlaridan kelib chiqib tahlil qilish lozim. Ta'limni texnologiyalar yordamida individuallashtirish g'oyasi uzoq tarixga ega.

XX asrning o'rtalarida dasturlashtirilgan ta'lim g'oyasi ilgari surilib, o'quv materialini kichik qadamlarga bo'lish va har bir qadamdan so'ng darhol qayta aloqa berish tamoyillari asoslab berildi. Keyingi o'n yilliklarda intellektual tyutorlik tizimlari rivojlanib, ular talabaning xatolarini tahlil qilish va unga mos ko'mak ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldi.

B. Blumning mashhur tadqiqotida individual tyutorlik asosida ta'lim olgan talabalarning natijalari an'anaviy guruhiy ta'lim olgan talabalarnikiga nisbatan qariyb ikki standart og'ish darajasida yuqori bo'lgani qayd etilgan. Biroq har bir talabaga shaxsiy tyutor biriktirish iqtisodiy jihatdan imkonsiz bo'lganligi sababli, Blum ushbu muammoni ommaviy ta'lim sharoitida hal qilish yo'llarini izlashga chaqirgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellektning ta'limdagi imkoniyatlari masalasi xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng tadqiq etilgan.

B. Blum individual tyutorlikning guruhiy ta'limga nisbatan yuqori samaradorligini asoslab, ommaviy ta'lim sharoitida tyutorlik samarasiga yaqin natija beradigan usullarni izlash vazifasini qo'ygan.

K. VanLen esa inson tyutorligi, intellektual tyutorlik tizimlari va boshqa tyutorlik shakllarining samaradorligini qiyosiy tahlil qilib, yechimning har bir bosqichida ko'mak beruvchi zamonaviy tizimlarning samaradorligi inson tyutorligi samaradorligiga ancha yaqinlashganini, biroq real sharoitda inson tyutorligining samarasi Blum ko'rsatgan darajadan pastroq ekanini aniqlagan. Bu natija texnologiyaning salohiyatini tasdiqlash bilan birga, undan kutilayotgan natijalarni realistik baholash zarurligini ham ko'rsatadi.

R. Lakin va hammualliflari sun'iy intellektning ta'limdagi salohiyatini tahlil qilib, uning har bir talabaga individual tyutor, guruhiy o'qishda yordamchi, o'qituvchiga ko'makchi va umrbod ta'lim yo'ldoshi bo'lishi mumkinligini asoslashgan. Mualliflar sun'iy intellekt tizimlari ta'lim fanlari va pedagogik psixologiya natijalariga tayangan holda rivojlantirilishi lozimligini ta'kidlaydilar.

U. Xolms, M. Bialik va Ch. Fadel esa sun'iy intellektning ta'limdagi asosiy qo'llanish sohalarini – intellektual tyutorlik tizimlari, dialogga asoslangan tyutorlik, avtomatik baholash va boshqa vositalarni – tizimlashtirib, ularning har biri bilan bog'liq pedagogik va axloqiy masalalarni tahlil qilishgan. Ushbu tizimlashtirish sun'iy intellekt imkoniyatlarini ta'lim jarayoni ishtirokchilari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish imkonini beradi.

Sun'iy intellektga nisbatan tanqidiy yondashuv ham adabiyotlarda keng o'rin egallagan. N. Selvin robotlar o'qituvchilarni almashtirishi mumkinmi, degan savolni tahlil qilib, ta'limning ijtimoiy, munosabatlarga asoslangan va axloqiy jihatlarini texnologiya bilan almashtirib bo'lmasligini asoslagan.

O. Zavatski-Rixter va hammualliflari oliy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishga oid tadqiqotlarni tizimli tahlil qilib, ularning aksariyati kompyuter fanlari mutaxassislari tomonidan amalga oshirilganini, pedagogik nazariya bilan bog'liqligi zaif ekanini, shuningdek, xavf-xatarlar va axloqiy masalalar yetarlicha tahlil qilinmaganini aniqlashgan.

E. Kasnetsi va hammualliflari esa katta til modellarining ta'limdagi imkoniyatlari va muammolarini ko'rib chiqib, ulardan samarali foydalanish uchun talaba va o'qituvchilarda maxsus kompetensiyalarni shakllantirish zarurligini asoslashgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, faoliyatli va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarning uyg‘unligi tashkil etadi. Tizimli yondashuv sun’iy intellektni ta’lim jarayonining alohida elementi sifatida emas, balki maqsad, mazmun, metod, vosita va natija o‘rtasidagi bog‘lanishlar tizimiga kiritilgan komponent sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi. Uning doirasida sun’iy intellekt texnologiyalarining har bir funksiyasi ta’lim jarayonining qaysi elementiga ta’sir ko‘rsatishi va bu ta’sir boshqa elementlarda qanday o‘zgarishlarga olib kelishi tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqot natijasida sun’iy intellekt texnologiyalarining oliy ta’limdagi asosiy didaktik funksiyalari tasniflandi.

Tyutorlik funksiyasi talabaga individual tushuntirishlar, yo‘naltiruvchi savollar va bosqichma-bosqich ko‘mak berish orqali bilish faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi.

Qayta aloqa funksiyasi talabaning javobi yoki bajargan ishiga tezkor va batafsil izoh berish orqali tuzatish funksiyasini amalga oshiradi.

Kontent yaratish funksiyasi o‘qituvchiga turli darajadagi mashqlar, keyslar va savollarni tayyorlashda yordam beradi.

Baholash funksiyasi nazorat jarayonini qisman avtomatlashtiradi.

O‘quv analitikasi funksiyasi esa talabalar faoliyati haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilib, o‘qituvchiga qiyinchiliklarga duch kelayotgan talabalarni erta aniqlash imkonini beradi.

Sun’iy intellektning ta’limdagi o‘rni masalasi xorijiy ilmiy diskursda keskin polemikaga sabab bo‘lmoqda. Mazkur bahsning bir qutbida R. Lakin va hammualliflarining pozitsiyasi turadi. Ular sun’iy intellektni ta’limdagi eng muhim muammolardan birini – har bir talabaga individual e’tibor berish imkoniyatining cheklanganligini – hal qilishga qodir texnologiya sifatida ko‘radilar. Mualliflarning fikricha, ta’lim fanlari natijalariga tayangan holda ishlab chiqilgan sun’iy intellekt tizimlari har bir talabaga individual tyutor bo‘lishi, o‘qituvchini takrorlanuvchi vazifalardan ozod qilib, uning vaqtini talabalar bilan yanada chuqurroq ishlashga yo‘naltirishi mumkin. Bu pozitsiya B. Blum tomonidan ilgari surilgan muammoni texnologik yo‘l bilan hal qilish g‘oyasining zamonaviy ifodasidir.

N. Selvin bu optimistik qarashga tizimli tanqid bilan yondashadi. Uning fikricha, ta’lim faqat bilim uzatish jarayoni emas, balki ijtimoiy, shaxslararo munosabatlarga asoslangan va axloqiy amaliyot bo‘lib, uning muhim jihatlari – ishonch, hamdardlik, kutilmagan vaziyatlarga moslashish va axloqiy mulohaza yuritish – texnologiya tomonidan to‘liq takrorlanishi mumkin emas. Selvin sun’iy intellekt tizimlari ta’limni o‘lchanadigan ko‘rsatkichlarga qisqartirish, talabalar haqidagi ma’lumotlarni tijoriy maqsadlarda to‘plash va o‘qituvchining kasbiy mustaqilligini cheklash xavfini tug‘dirishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, asosiy savol texnologiyaning imkoniyatlari haqida emas, balki biz qanday ta’limni qadrlashimiz haqida bo‘lishi kerak.

K. VanLenning empirik tadqiqoti ushbu bahsga muhim tuzatish kiritadi. U intellektual tyutorlik tizimlarining samaradorligi inson tyutorligi samaradorligiga ancha yaqin ekanini ko‘rsatib, texnologiya salohiyati haqidagi optimistik qarashni qisman tasdiqlaydi. Shu bilan birga, VanLen real sharoitda inson tyutorligining samarasi Blum qayd etgan darajadan ancha past ekanini aniqlab, texnologiyadan mo‘jizaviy natijalar kutish asossiz ekanini ham ko‘rsatadi. Uning tahliliga ko‘ra, tyutorlik samaradorligi talaba bilan o‘zaro ta’sirning qay darajada batafsil tashkil etilganiga bog‘liq: yechimning har bir bosqichida ko‘mak beruvchi tizimlar faqat yakuniy javobni tekshiruvchi tizimlarga nisbatan ancha samaralidir. Bu xulosa sun’iy intellektning didaktik qiymati uning pedagogik dizayniga bog‘liq ekanini tasdiqlaydi.

O. Zavatski-Rixter va hammualliflarining tizimli tahlili bahsning metodologik jihatdan zaif nuqtasini ochib beradi. Mualliflar oliy ta’limda sun’iy intellektga oid tadqiqotlarning aksariyati texnik yondashuv ustuvorligi asosida olib borilganini, ularda pedagogik nazariyaga tayanish kam uchrashini va axloqiy masalalar deyarli tahlil qilinmaganini aniqlashgan. Ularning asosiy savoli – “Bu tadqiqotlarda pedagoglar qayerda?” – sun’iy intellekt haqidagi bahsning o‘zi ko‘pincha pedagogik mazmundan uzilgan holda olib borilayotganini ko‘rsatadi. Bu tanqid ham optimistik, ham pessimistik qarashlarga tegishli: har ikkala holatda ham texnologiya ta’lim maqsadlari va jarayoni qonuniyatlaridan ajratilgan holda baholanadi.

E. Kasnetsi va hammualliflari bahsda muvozanatli pozitsiyani egallaydilar. Ular katta til modellarining ta’limdagi imkoniyatlarini – individual tushuntirish, yozish ko‘nikmalarini qo‘llab-quvvatlash va o‘qituvchi ishini yengillashtirish imkoniyatlarini – e’tirof etish bilan birga, texnologiyaga haddan tashqari tayanish, natijalarning xolis bo‘lmasligi va akademik halollik bilan bog‘liq muammolarni ham tahlil qiladilar.

Mualliflarning asosiy xulosasiga ko‘ra, texnologiyani taqiqlash ham, uni tanqidsiz qabul qilish ham samarasizdir. Zarur bo‘lgan yondashuv talaba va o‘qituvchilarda texnologiyadan mas’uliyatli foydalanish kompetensiyalarini, ayniqsa, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdan iborat. Bu pozitsiya mazkur maqolada taklif etilayotgan

transformatsion integratsiya darajasi bilan bevosita uyg‘unlashadi. Mazkur polemikaning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bahsda ishtirok etayotgan pozitsiyalarning har biri masalaning muayyan jihatini to‘g‘ri aks ettiradi.

Lakin va hammualliflari texnologiyaning salohiyatini, Selvin ta’limning insoniy o‘lchamini, VanLen samaradorlikning pedagogik dizaynga bog‘liqligini, Zavatski-Rixter va hammualliflari pedagogik nazariyaga tayanish zarurligini, Kasnetsi va hammualliflari esa mas’uliyatli foydalanish kompetensiyalarining ahamiyatini ochib beradilar. Mazkur maqolada ilgari surilayotgan pozitsiya ushbu qarashlarni pedagogik ustuvorlik tamoyili asosida birlashtiradi: sun’iy intellektning didaktik imkoniyatlari faqat u ta’lim maqsadlariga bo‘ysundirilgan, o‘qituvchining yetakchi roli saqlangan va talabaning aqliy mehnati almashtirilmasdan, balki yo‘naltirilgan taqdirdagina to‘liq amalga oshadi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot sun’iy intellekt texnologiyalarining oliy ta’limdagi didaktik imkoniyatlari keng ekanligini, biroq ularning o‘z-o‘zidan amalga oshmasligini asoslab berdi. Sun’iy intellekt o‘qituvchini almashtiruvchi vosita emas, balki ta’lim jarayonining didaktik funksiyalarini kuchaytiruvchi texnologik muhit bo‘lib, uning samaradorligi texnologiyaning texnik imkoniyatlari bilan emas, balki undan pedagogik jihatdan asoslangan holda foydalanish bilan belgilanadi.

Tadqiqotda sun’iy intellektning tyutorlik, qayta aloqa, kontent yaratish, baholash va o‘quv analitikasi funksiyalari didaktik funksiyalar bilan muvofiqlashtirilgan holda tasniflandi. Bir xil texnologiya qanday qo‘llanilishiga qarab talabaning aqliy mehnatini kuchaytirishi yoki uning o‘rnini egallashi mumkinligi aniqlandi hamda aqliy mehnatni saqlash tamoyili asoslab berildi. Integratsiyaning yordamchi, qo‘llab-quvvatlovchi va transformatsion darajalardan iborat modeli hamda oltita didaktik tamoyil sun’iy intellektni o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich va nazorat ostida joriy etish imkonini beradi. Xorijiy ilmiy polemika tahlili esa texnologiya haqidagi bahsni pedagogik ustuvorlik tamoyili asosida hal qilish zarurligini ko‘rsatdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha ichki qoidalarni taqiqlash tamoyili asosida emas, balki oqilona foydalanish tamoyili asosida ishlab chiqish; ikkinchidan, har bir fan dasturida sun’iy intellektdan foydalanishga ruxsat etilgan va taqiqlangan holatlarni aniq belgilash; uchinchidan, baholash tizimini o‘quv jarayoniga yo‘naltirilgan shakllar bilan boyitish; to‘rtinchidan, sun’iy intellekt tomonidan taqdim etilgan javoblarni tanqidiy tekshirishga asoslangan o‘quv vazifalarini joriy etish; beshinchidan, o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimiga sun’iy intellekt savodxonligi bo‘yicha amaliy modullarni kiritish.

Yakuniy xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, sun’iy intellekt davrida oliy ta’limning asosiy vazifasi o‘zgarmaydi – u mustaqil fikrlaydigan, mas’uliyatli va ijodkor shaxsni tarbiyalashdan iborat bo‘lib qoladi. O‘zgarayotgan jihat esa ushbu vazifani amalga oshirish shartlari va vositalaridir. Sun’iy intellekt ushbu vazifaga xizmat qilganda kuchli ittifoqchiga, uni chetlab o‘tganda esa jiddiy to‘siqqa aylanadi. Qaysi yo‘l tanlanishi esa texnologiyaga emas, balki pedagogik qarorlarga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bloom B.S. The 2 Sigma Problem: The Search for Methods of Group Instruction as Effective as One-to-One Tutoring // Educational Researcher. – 1984. – Vol. 13, № 6. – P. 4–16.
2. Ergashbaev S. O‘zbekiston sharoitida uzluksiz ta’lim tizimi orqali yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish // Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – Т. 1, № 1. – S. 314–316.
3. VanLehn K. The Relative Effectiveness of Human Tutoring, Intelligent Tutoring Systems, and Other Tutoring Systems // Educational Psychologist. – 2011. – Vol. 46, № 4. – P. 197–221.
4. Luckin R., Holmes W., Griffiths M., Forcier L.B. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. – London: Pearson, 2016. – 60 p.
5. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. – 228 p.
6. Ergashbayev S. Uzluksiz ta’lim tashkil etish orqali yoshlarning ma’naviy-falsafiy dunyoqarashini yuksaltirish // Bulletin of Contemporary Researches: Multidisciplinary. – 2025. – Vol. 1, № 1. – P. 10–13.
7. Selwyn N. Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. – Cambridge: Polity Press, 2019. – 160 p.
8. Zawacki-Richter O., Marín V.I., Bond M., Gouverneur F. Systematic Review of Research on Artificial Intelligence Applications in Higher Education – Where Are the Educators? // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2019. – Vol. 16. – Art. 39.
9. Mirzaolimjon og‘li M.M., Shohbozbek E. Yangi O‘zbekistonning ta’lim siyosati va universitetlarning yangi modellari // Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. – 2025. – Vol. 16, № 01. – B. 325–328.
10. Kasneci E., Seßler K., Küchemann S. [et al.] ChatGPT for Good? On Opportunities and Challenges of Large Language Models for Education // Learning and Individual Differences. – 2023. – Vol. 103. – Art. 102274.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.